

Buxoro viloyatida kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2024-yil uchun


- I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni
- II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rnlari soni
- III. Umumi iqtisodiy ko'rsatkichlar
- IV. Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari
- V. Sanoat
- VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- VII. Qurilish
- VIII. Xizmatlar
- IX. Savdo faoliyati
- X. Ovqatlanish bilan ta'minlash
- XI. Innovatsiya

I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni (2025-yilning 1-yanvar holatiga)

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 22,6 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo sohasida 7,5 mingta (jamiga nisbatan 33,4%), sanoat tarmoqlarida 3,1 mingta (13,5 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,8 mingta (12,3 %), qurilishda 2,0 mingta (8,7 %), yashash va ovqatlanishda 1,8 mingta (8,2 %) tashish va saqlashda 2,3 mingta (10,0 %) qayd etilgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (2025-yilning 1-yanvar holatiga)





Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari

2024- yilda Buxoro viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 69 927 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 68 009 tani tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi Buxoro shahri (23 886 ta), G'ijduvon (8 486 ta), Kogon (4 933 ta), Buxoro (4 859 ta), Jondor (4 187 ta) va Romitan (4 163 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Buxoro viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 17 542 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 17 351 tani tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayollar sonining eng ko'pi Buxoro shahri 7 522 ta, G'ijduvon tumani 2 164 ta, Kogon shahri (1 254 ta), Buxoro (1 103 ta), Shofirkon (878 ta) va Olot (774 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024-yilda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi savdo (16 739 nafar), sanoat (16 129 nafar), qurilishda (12 791 nafar), yashash va ovqatlanish boyicha xizmatlar (5 755 nafar), tashish va saqlash (5 725 nafar) va qishloq xo'jaligi (3 939 nafar) ga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Buxoro viloyati bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 1 563,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 1 333,1 mlrd so'mni tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Buxoro shahri 619,5 mlrd so'm, G'ijduvon 143,2 mlrd so'm, Kogon 119,1 mlrd so'm, Buxoro 93,5 mlrd so'm, Vobkent 81,4 mlrd so'm, Romitan 79,1 mlrd so'm tumanlari va Kogon shahriga 75,7 mlrd so'm to'g'ri kelgan.

Buxoro viloyati bo'yicha 2024- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 350,3 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 305,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Buxoro shahri 171,0 mlrd so'm, G'ijduvon 30,1 mlrd so'm, Kogon 29,5 mlrd so'm, Buxoro tumanlari 19,5 mlrd so'm, Kogon shahri 13,5 mlrd so'm, Olot 15,1 mlrd so'm, Shofirkon 13,5 mlrd so'm, Vobkent 11,7 mlrd so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarning eng ko'p hajmi sanoatda (417,0 mlrd so'm), savdo (333,5 mlrd so'm), qurilishda (290,8 mlrd so'm), tashish va saqlash (116,0 mlrd so'm), yashash va ovqatlanish (108,3 mlrd so'm) hamda ta'lim (67,4 mlrd so'm)ga to'g'ri kelgan.



II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rnlari soni

2024- yil hisobot yilida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rnlari soni 21 920 tani tashkil etdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha yangi ochilgan ish o'rnlari sonining eng ko'pi Buxoro shahri (6 578 ta), G'ijduvon (2 782 ta), Vobkent (2 296 ta), Buxoro (1 634 ta), Jondor (1 249 ta), Shofirkon (1 200 ta) va Kogon (1 197 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Mehnat daftarchalari mayjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 79 437 kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mayjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 80 437 kishini tashkil etgan.

Tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 2024- yilda 544 kishi. Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 530 kishini tashkil etgan.

Fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 231 kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 615 ming kishini tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni (birlikda)

	Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda		Ulushi, % da
	2023- yil.	2024- yil.	
Buxoro viloyati	2 168	2 434	100,0
Buxoro sh.	849	865	35,6
Kogon sh.	123	129	5,3
tumanlar:			
Olot	192	229	9,4
Buxoro	136	185	7,6
Vobkent	71	87	3,6
G'ijduvon	164	191	7,9
Kogon	114	147	6,0
Q'orakol	69	76	3,1
Qorovulbozor	81	89	3,7
Peshku	55	64	2,6
Romitan	93	98	4,0
Jondor	125	149	6,1
Shofirkon	96	125	5,1



2024-yilda Buxoro viloyati bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 434 tani tashkil etgan. Bu esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 266 taga ko'p demakdir. Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning, jami faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi ulushi 10,8 % ni tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi Buxoro shahri 865 ta (35,6 %), Olot - 229 ta (9,4 %), G'ijduvon - 191 ta (7,8 %) Buxoro - 185 ta (7,6 %), Jondor - 149 ta (6,1 %) va Kogon - 147 ta (6,0 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda o'ttacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 5 994 kishini tashkil qildi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 64,6 mlrd so'mga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'satkichlari

O'Ichov birligi	2023- yil	2024- yil	
O'rta ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni	kishi	3 617	5 994
Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar	mlrd so'm	59,6	64,6
Hisobot yili oxiriga mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni shu jumladan oliy ma'lumotli	kishi	4 122	4 346
Hisobot yilida yangi ochilgan ish o'rnlari soni	birlik	869	1 939
Hisobot yilida qisqartirilgan ish o'rnlari soni	birlik	684	999
Hisobot yilida mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rta ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rta soni	kishi	4 223	4 360
Tashqi o'rindoshlarning yillik o'rta ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rta soni	kishi	30	71
Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rta ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rta soni	kishi	17	20

III.Umumiy iqtisodiy ko'satkichlar

2024-yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 32 589,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum miqdori va ulushining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasida 16 272,6 mlrd so'm (49,9 %), sanoat tarmoqlarida 7 435,5 mlrd so'm (22,8 %), qurilishda 4 548,6 mlrd so'm (14,0 %), tashish va saqlashda 1 221,1 mlrd so'm (3,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 191,3 mlrd so'm (3,7 %), yashash va ovqatlanishda 823,9 mlrd so'm (2,5 %), boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'satishe 264,5 mlrd so'm (0,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'satishe 217,3 mlrd so'm (0,7 %), ko'chmas mulk bilan operatsiyalar 92,4 mlrd so'm (0,3 %)ni tashkil etgan.



Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Buxoro shahri (11 829,3 mlrd so'm), G'ijduvon (3 175,1 mlrd so'm), Kogon (2 521,5 mlrd so'm), Buxoro (2 368,2 mlrd so'm) va Jondor (2 229,4 mlrd so'm) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdori 512,3 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy natijani 114,0 mlrd so'mga kamayishiga olib keldi.

Shuningdek, 2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 194,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan sof foydani 161,0 mlrd so'mga kamayishiga olib keldi.

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining eng ko'pi Kogon (144,3 mlrd so'm) va Buxoro shaharlari (96,0 mlrd so'm), Qorovulbozor (81,2 mlrd so'm), G'ijduvon (68,7 mlrd so'm) va Romitan (50,4) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi sanoat sohasida – 235,2 mlrd so'm (45,9 %), qurilishda – 174,9 mlrd so'mni (34,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 34,0 mlrd so'mni (6,6 %) ni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) va sof foydasi (zarar) miqdori (mlrd so'm)

	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)		Sof foyda (zarar)	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jami	626,3	512,3	355,2	194,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	-42,8	-47,7	-57,3	-58,4
Sanoat	105	235,2	27,6	152,6
Qurilish	123	174,9	86,6	126,9
Savdo	338,3	9,4	246,2	-106,9
Tashish va saqlash	14,8	13,8	-0,3	1,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,7	34,0	2,7	16,4
Axborot va aloqa	5,6	7,6	4,2	3,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-11,5	-21,3	-15,3	-27,4
Boshqa turdag'i xizmatlar	78,2	106,4	60,8	86,8



IV.Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

2025- yilning 1- yanvar holatiga kichik korxona va mikrofirmalarning debitor qarzdorligi 3 582,0 mlrd so'm, kreditor qarzdorligi 4 996,1 mlrd so'mga yetgan.

Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi 17 332,6 mlrd so'm, asosiy vositalarning eskirish summasi 3 205,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari mlrd so'mda

	2023- yil	2024- yil
Yil oxiriga debitorlik qarz	11 171,9	3 582,0
Yil oxiriga kreditorlik qarz	4 800,6	4 996,1
Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi	12 107,4	17 332,6
Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi	2 623,4	3 205,4
Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati bo'yicha bahosi	31,5	49,4
Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi summasi	16,7	18,1
Tugallanmagan qurilishlar (o'rnatilmagan uskunalarini qo'shgan holda)	8 059,6	28 532,7

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 2 205,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 298,2 mlrd so'mga ko'p demakdir. 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning ulushi jami sof tushumning 6,8 % ini tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Buxoro shahri 957,9 mlrd so'm, Buxoro 489,7 mlrd so'm, Kogon 135,7 mlrd so'm, Olot 118,9 mlrd so'm, G'ijduvon 112,6 mlrd so'm tumanlari, Kogon shahri 77,0 mlrd so'm, shuningdek, Romitan 71,6 mlrd so'm tumaniga to'g'ri kelgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum hajmi va jamidagi ulushi

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, % da
Buxoro viloyati	2 205,6	100,0
Buxoro sh.	957,9	43,5
Kogon sh	77,0	3,5
Olot	118,9	5,4
Buxoro	489,7	22,2
Vobkent	19,7	0,9
G'ijduvon	112,6	5,1
Kogon	135,7	6,1
Qorako'l	57,8	2,6



Qorovulbozor	18,1	0,8
Peshku	28,1	1,3
Romitan	71,6	3,2
Jondor	70,0	3,2
Shofirkon	48,7	2,2

2024-yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) miqdori 88,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024-yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 66,9 mlrd so'mni tashkil etgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (mlrd so'mda)

	2023- yil	2024- yil
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum	1 907,4	2 205,6
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi	1 644,5	1 895,8
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari)	73,8	88,2
Sof foyda (zarar (-))	51,8	66,9
Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi	510,6	623,5
Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi	117,5	149,1

V.Sanoat

2024-yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 10 235,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa 2023-yilga nisbatan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotini 3 661,4 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi eng ko'pi, Buxoro shahri 2 099,7 mlrd so'm, Kogon 1 549,1 mlrd so'm, G'ijduvon 852,7 mlrd so'm, Vobkent 809,0 mlrd so'm, Qorovulbozor 802,1 mlrd so'm tumanlari va Kogon shahriga 746,6 mlrd so'mni tashkil etgan.

Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz) (mlrd so'mda)

	Jami		Rahbari ayol kishi bo'lgan	
	Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda		Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda	
	2023-yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Buxoro viloyati	6 573,9	10620,3	164,9	530,8
Buxoro sh.	1 199,9	2010,3	61,6	269,4
Kogon sh.	477,7	860,4	1,3	8,4
tumanlar:				
Olot	181,3	296,1	2,8	50,2



Buxoro	156,7	375,9	1,5	6,9
Vobkent	424,6	809,0	1,0	5,0
G'ijduvon	559,4	859,2	16,3	35,9
Kogon	885,8	1555,2	25,8	37,6
Qorako'l	346,5	537,2	25,1	31,1
Qorovulbozor	965,4	802,8	1,1	1,4
Peshku	157,0	407,7	5,8	13,7
Romitan	393,0	634,9	0,5	1,1
Jondor	514,9	1005,9	17,1	35,6
Shofirkon	311,1	465,7	5,0	34,5

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 530,8 mlrd so'mni tashkil etgan.

2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, jami kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining 5,2 % ini tashkil etdi. Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmining eng katta ulushi Buxoro shahri (269,4 mlrd so'm) ga to'g'ri keldi.

VI.Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 868,0 mlrd so'mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi (2024- yilda).

	Hajmi, mlrd so'mda
Jami	868,0
O'rmonchilik va yog'och tayyorlash	841,2
Baliq ovlash va akvakultura	2,7
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish	24,1

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmining eng ko'pi Jondor (181,9 mlrd so'm), Romitan (147,9 mlrd so'm), Kogon (100,8 mlrd so'm), Buxoro (94,8 mlrd so'm) va G'ijduvon (89,4) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 25,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatishda 0,5 mlrd so'm, o'rmonchilik va yog'och tayyorlashda 24,9 mlrd so'm baliq ovlash va akvakulturada 0,03 mlrd so'mni tashkil etgan.




VII.Qurilish

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 5 188,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan qurilish ishlarini 278,3 mlrd so'mga kamaygan.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 3 259,9 mlrd so'm, kapital ta'mirlashda 792,2 mlrd so'm, joriy ta'mirlashda 466,3 mlrd so'm boshqa pudrat ishlarida 670,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi
(2024- yilda, mlrd so'm)**



Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (1 620,6 mlrd so'm), Peshku (463,7 mlrd so'm), Shofirkon (444,7 mlrd so'm), Romitan (442,3 mlrd so'm) va Kogon (392,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmi(QQSsiz) (mlrd so'mda)

	Jami		Shundan ayollar rahbarligidagi korxonalarda	
	Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi		Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Buxoro viloyati	5 466,9	5 188,6	117,3	200,5
Buxoro sh.	1 390,9	1 620,6	50,7	63,8
Kogon sh. tumanlar:	525,7	374,8	3,1	11,2
Olot	106,2	138,2	6,7	22,0
Buxoro	311,4	322,3	3,5	15,6
Vobkent	189,2	191,7	-	
G'ijduvon	230,4	286,1	2,5	3,4
Kogon	687,5	392,9	-	0,5
Qorako'l	137,3	111,7	2,1	1,6
Qorovulbozor	221,3	90,8	0,2	4,0



Peshku	401,7	463,7	18,7	17,6
Romitan	477,9	442,3	19,6	34,9
Jondor	261,2	308,8	0,1	0,9
Shofirkon	526,2	444,7	10,1	25,0

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 200,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan bajarilgan qurilish ishlarini 83,2 mlrd so'mga kamayganini ko'rsatadi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, kichik korxona va mikrofirmalar jami qurilish ishlarining 3,9 % ini tashkil etdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (63,8 mlrd so'm), Romitan (34,9 mlrd so'm), Shofirkon (25,0 mlrd so'm), Olot (22,5 mlrd so'm) va Peshku (17,6 mlrd so'm) shahar va tumanlarida qayd etilgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 131,2 mlrd so'm, kapital ta'mirlashda 7,8 mlrd so'm, joriy ta'mirlashda 14,5 mlrd so'm boshqa pudrat ishlarida 46,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

VIII.Xizmatlar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi 4 859,3 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023 - yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni 1 047,6 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning eng ko'pi Buxoro shahri (2 008,8 mlrd so'm), Peshku (463,7 mlrd so'm), Shofirkon (444,7 mlrd so'm), Romitan (442,3 mlrd so'm), Buxoro (322,3 mlrd so'm), Jondor (308,8 mlrd so'm) va G'ijduvon (286,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi (mlrd so'mda)

	Jami xizmat		Shundan: ayollar rahbarligida	
	2023- yil	2024- yil	2023-yil	2024-yil
Buxoro viloyati	3 811,7	4 859,3	349,1	389,0
Buxoro sh.	1 579,2	2 008,8	229,2	208,7
Kogon sh.	125,9	150,8	15,7	22,4
tumanlar:				
Olot	48,4	58,1	6,9	8,8
Buxoro	215,5	322,3	12,4	28,4
Vobkent	155,1	191,7	4,3	3,6
G'ijduvon	316,5	286,1	13,5	32,8
Kogon	181,7	392,9	24,5	31,4
Qorako'l	126,9	111,7	8,6	7,7
Qorovulbozor	150,6	90,8	3,4	5,0
Peshku	247,4	463,7	6,0	6,0



Romitan	205,7	442,3	7,0	8,3
Jondor	287,5	308,8	12,8	22,7
Shofirkon	171,3	444,7	4,8	3,2

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi 389,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni 39,9 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi, kichik korxona va mikrofirmalar jami xizmatlar hajmining 8,0 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning eng ko'pi Buxoro shahri (208,7 mlrd so'm), G'ijduvon (32,8 mlrd so'm), Kogon (31,4 mlrd so'm), Buxoro (28,4 mlrd so'm) va Jondor (22,7 mlrds o'm) tumanlarida qayd etilgan.

IX.Savdo faoliyati

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 11 495,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasini 1 778,1 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining eng katta ulushi Buxoro shahrida (5 727,5 mlrd so'm) va G'ijduvon tumanida (1 081,6 mlrd so'm) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'mda)

	Ulgurji savdo		Chakana savdo	
	2023- yil.	2024- yil.	2023- yil.	2024- yil.
Buxoro viloyati	9 717,1	11 495,2	5 423,5	7 127,2
Buxoro sh.	4 742,4	5 727,5	1 387,9	2 243,8
Kogon sh.	190,3	236,8	221,6	261,5
tumanlar:				
Olot	32,4	75,1	107,1	175,7
Buxoro	646,1	846,9	736,2	870,8
Vobkent	81,2	197,7	185,8	298,0
G'ijduvon	717,6	1 081,6	682,1	866,8
Kogon	645,1	821,0	163,5	203,7
Qorako'l	163,7	283,2	256,3	338,3
Qorovulbozor	1 009,0	551,8	45,1	50,4
Peshku	295,7	355,7	218,9	231,9
Romitan	392,3	534,7	671,3	740,7
Jondor	654,4	557,7	507,1	549,3
Shofirkon	147,1	225,5	241,0	296,3



2024-yilda kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 7 127,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023-yilga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasini 1 703,7 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasining eng Buxoro shahri (2 243,8 mlrd so'm), Buxoro (870,8 mlrd so'm), G'ijduvon (866,8 mlrd so'm), Romitan (740,7 mlrd so'm), Jondor (549,3 mlrd so'm), Qorako'l (338,3 mlrd so'm), Vobkent (298,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

X.Ovqatlanish bilan ta'minlash

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning ovqatlanish bilan ta'minlash bo'yicha tovar aylanmasi hajmi 578,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ovqatlanish bilan ta'minlash tovar aylanmasini 142,9 mlrd so'mga ko'payishiga olib keldi.

Shahar va tumanlar bo'yicha ovqatlanish bilan ta'minlash tovar aylanmasining eng ko'pi Buxoro shahri (301,6 mlrd so'm), G'ijduvon (49,6 mlrd so'm), Shofirkon 47,1 mlrd so'm) tumanlari, Kogon shahri (25,5mlrd so'm), Buxoro (24,8 mlrd so'm), Vobkent (22,2 mlrd so'm) va Romitan (22,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

XI.Innovatsiya

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyar 137 tani tashkil etgan. Bunda 2023- yilga nisbatan innovatsiyalar soni 59 taga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar sonining eng ko'pi qurilish sohasida 51 ta, savdo sohasida 50 ta, axborot va aloqa sohasida 15 ta, Tashish va saqlash sohasida 10 ta , sanoatda 7 tani tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar (2024- yilda).

	Texnologik innovatsiya-lar, birlikda.	marketing innovatsi-yalari, birlikda	tashkiliy innovatsi-yalar, birlikda	innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so'm	texnologik innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd so'm
Jami	137	4	1	67,3	32,3
Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3	-	-	3,9	2,5
Sanoat	7	-	-	46,8	18,3
Qurilish	51	-	-	0,7	0,7
Savdo	50	4	-	10,3	5,2
Tashish va saqlash	10	-	-	0,7	3,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	-	-	-
Axborot va aloqa	15	-	-	3,4	2,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turdag'i xizmatlar	1	-	1	1,5	-



Shahar va tumanlar bo'yicha joriy etilgan innovatsiyalarning eng ko'pi Buxoro shahri (122 ta), Qorovulbozor (3 ta), Vobkent, Kogon, Peshku va Romitan tumanlarida (2 tadan) qayd etilgan.

**Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar
(2024-yilda).**

	Texnologik innovatsiyalar, birlikda.	marketing innovatsiyalari, birlikda	tashkiliy innovatsiyalar, birlikda	innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so'm	texnologik innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd so'm
Buxoro viloyati	137	4	1	67,3	32,3
Buxoro sh.	122	3	-	20,4	11,3
Kogon sh.	-	-	-	1,3	-
tumanlar:					
Olot	1	1	-	-	-
Buxoro	-	-	-	2,3	-
Vobkent	2	-	-	0,7	-
G'ijduvon	1	-	-	0,3	-
Kogon	2	-	-	32,7	13,0
Qorako'l	1	-	-	0,7	0,5
Qorovulbozor	3	-	-	1,4	1,4
Peshku	2	-	-	1,9	2,1
Romitan	2	-	1	5,6	3,0
Jondor	1	-	-	-	1,0
Shofirkon	-	-	-	-	-

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Mikrofirma va kichik korxonalarining faoliyati to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

1 kb (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning 2024-yil uchun hisoboti"ni mikrofirma va kichik korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan. Tarmoqlar kesimidagi ma'lumotlarni, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati asosida jamlangan ma'lumotlar bo'yicha tayyorlangan.

Mazkur ma'lumotlar tarkibiga yirik tijorat korxonalari, byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari va banklarning ko'rsatkichlari kiritilmagan.



Foydali havolalar

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:

I. Shokirov
65 505-80-00 (8030)

Manzil:

